

“QADRIYAT” MAZMUNYI MAYDONIGA OID LEKSEMALARNING BIRLASHTIRUVCHI VA FARQLOVCHI SEMALARI

B.P.Zaripov,

Navoiy davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot o‘zbek tili leksikologiyasining dolzarb masalalaridan biri — “Qadriyat” konseptual maydonining semantik qurilishi va uning lisoniy tizimdagi ierarxik munosabatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada mazkur maydon tarkibidagi leksemalarning o‘zaro semantik aloqalari komponent tahlil metodi orqali tadqiq etiladi. Muallif birliklarning umumiy (integral) va xususiy (differensial) semalari asosida leksik-semantik guruhlarining shakllanish mexanizmlarini, shuningdek, so‘zlarning denotativ va konnotativ ma‘nolari o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni ilmiy asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: semantik maydon, komponent tahlil, leksema, integral sema, differensial sema, qadriyat konsepti, leksik tizim, lisoniy manzara.

Аннотация. Данная работа посвящена изучению семантической структуры концептуального поля «Ценность» в лексической системе узбекского языка и выявлению иерархических связей внутри данного поля. В статье методом компонентного анализа исследуются семантические отношения между лексемами, составляющими данную микросистему. Автор научно обосновывает механизмы формирования лексико-семантических групп на основе интегральных и дифференциальных сем, а также раскрывает диалектическую взаимосвязь между прямыми и переносными значениями слов в рамках исследуемого поля.

Ключевые слова: семантическое поле, компонентный анализ, лексема, интегральная sema, дифференциальная sema, концепт «ценность», лексическая система, языковая картина мира.

Annotation. This research is devoted to the analysis of the semantic structure of the conceptual field "Value" (Qadriyat) within the lexical system of the Uzbek language and the identification of hierarchical relations within this domain. The article utilizes the component analysis method to investigate the semantic interconnections between lexemes forming this microsystem. The author provides a scientific basis for the formation mechanisms of lexico-semantic groups based on integral and differential semes, while also revealing the dialectical correlation between the literal and figurative meanings of words within the studied field.

Keywords: semantic field, component analysis, lexeme, integral seme, differential seme, concept of value, lexical system, linguistic worldview.

Kirish. “Qadriyat” mazmuniy maydonining sistemasi o‘zbek tili leksik qatlamida bir umumiy semantik maydonga aloqador bo‘ladi. Mazkur atov birliklarning ma‘noviy munosabati maydondagi leksemalarning birlashtiruvchi va farqlovchi semalar asosida aniqlanadi. “Qadriyat” umumiy semasiga oid bo‘lgan farqlovchi sxemalar bir semantik sohaga mansub leksemalarning ma‘nolari orasidagi farqlarni ajratib ko‘rsatadi.

“Qadriyat” mazmuniy maydonining sistemasi o‘zbek tili leksik qatlamida bir umumiy semantik maydonga aloqador bo‘ladi. Mazkur atov birliklarning ma‘noviy munosabati maydondagi leksemalarning birlashtiruvchi va farqlovchi semalar asosida aniqlanadi. “Qadriyat” umumiy semasiga oid bo‘lgan farqlovchi sxemalar bir semantik sohaga mansub leksemalarning ma‘nolari orasidagi farqlarni ajratib ko‘rsatadi.

Mazkur semantik maydonni birlashtiruvchi tizimi leksemalarning o‘z va ko‘chma ma’nolaridagi umumiy belgilaridan kelib chiqib birlashtiradi. Maydonning umumiy semasidagi farqlar asosida bir xil semantik sohaga tegishli bo‘lgan so‘zlarni guruhlash imkonini beradi. Har qanday mazmuniy maydonning sohasiga oid atov birliklar birlashtiruvchi va farqlovchi ma’nolarini aniqlashda semasiologiya, onomosiologiya, semantika va leksikologiyani chuqur bilishni talab qiladi.

Ma’lumki, tilning leksik-semantik sistemasida juda yirik qatlamni tashkil etgan va o‘ziga xos shaklda tizimli va millatning butun borlig‘ini ko‘rsatuvchi “qadriyat” maydoni muhim ahamiyatga ega.

QADRIYAT – turli sohalarda turlicha ma’noda qo‘llanadi. Masalan, tarix sohasining mutaxassislari qadriyatga o‘zgacha yondashib tadqiqotlar olib boradi. Xususan, tarixiy qadamjolar, tarixiy asoriatqalar va tarixiy yodgorliklarning barchasi qadriyat sifatida belgilanib, ulrning davri, xususiyati, paydo bo‘lish omillari, madaniyatga ta’sirini o‘rganadi. Qadriyatga sohalararo berilgan turli ta’riflar natijasida uning mavzuiy guruhlari shakllana boravergan, bunga zamon, makon, mafkura, shaxslar, , mustamlakachilik, ozodlik uchun kurashlar ham sabab bo‘ladi. Ijtimoiy fanlarning qanday sohasalariga qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu izlanishlar natijasida uning turli xususiyatlari ochilgan va shu jihatdan ta’rif berishga intilish odat tusiga aylangan.

Qadriyatga oid birliklarning ichki strukturasi tasniflash jarayonida qadriyatga oid bo‘lgan “makon”(Sharq/G‘arb), “zamon” (tarixiy/zamonaviy), “aniq va mavhum”(moddiy/ma’naviy), “sohaviy”(iqtisodiy/siyosiy), “kategoriya” (Falsafiy/lingvistik), “mafkuraga oid” (Mustaqillik davrida/ mustamlaka davrida), “amal qilishiga ko‘ra” (umumbashariy/ milliy/huquqiy) hamda “ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan” (diniy qadriyatlar/ huquqiy qadriyatlar/ siyosiy qadriyatlar) kabi mavzuiy va ma’noviy guruhlarda namoyon bo‘ladi.

Muhokaam va natija. Mazkur leksema tarkibidagi semantik xususiyatlarni to‘layoritish uchun maydonning tarkibiy qismi bo‘lgan mavzuiy guruh/ma’noviy guruh/ma’noviy uya sistemasini aniqlash va ularni yuzaga keltiruvchi leksemalar tarkibini qiyosiy o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Natijada qadriyat maydonidagi butun-qism munosabatida birlashtiruvchi sema mavzuiy guruhlarni farqlovchi sema ma’noviy guruh va ma’noviy uyalarni shakllantiradi.

Keyingi bosqichda maydonning ma’noviy chegaralarni aniqlanadi, ya’ni qaysi tushunchalar maydonga a’loqador va qaysi tushunchalar maydonga kirmasligini aniqlash muhim. Bu uchun maydon nomini hamda uning o‘zaki, o‘zakdoshlarini va u orqali yasalgan leksemalarining ma’nolarini to‘plab, umumiy, *birlashtiruvchi* semalarini jadval holatiga keltiramiz.

QADR [a.miqdor, o‘lchov; daraja, martaba; taqdir, qismat] 1 Jamiyatda, kishilar o‘rtasida tutgan o‘rin, o‘zga(lar) tomonidan bo‘lgan hurmat, e’tibor. *O‘z qadrini bilmagan birovning qadrini bilmaydi. Maqol. Daryo suvini bahor toshirar, Odam qadrini mehnat*

oshirar. Maqol. – Oh, ona tuprog‘im, o‘sgan joylarim. Ko‘nglimda saqlanar hurmating, qadring. Mirtemir. Kishining qadri amali va unvoni bilan emas, vataniga, xalqiga qilgan xizmati bilan o‘lchanadi. Shuhrat, Shinelli yillar. Oftob oyim... qizining qadrini bunchalik arshlargacha ko‘tarmoqda bo‘lgan yigitga o‘zida yo‘q cheksiz muhabbat, poyonsiz ehtirom sezmoqda. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar.

2 Hayotda tutgan o‘rin; ahamiyat, muhimlik holati. Zar qadrini zargar bilar. Maqol. – Gazlamaning qadri juda oshib ketdi. Ertalabki narx kechga to‘g‘ri kelmaydi. Oybek, Tanlangan asarlar. U tomonlarda mevaning qadri baland deyishadi, rostmi? N.Safarov, Hayot maktabi. Biz hamma narsaning qadrini o‘zi yo‘qolgandan keyin bilamiz. O‘.Hoshimov, Nur borki, soya bor.

Qadr qilmoq, qadriga yetmoq yoki qadrini bilmoq 1) obro‘-e‘tiboriga, qadr-qimmatiga yarasha izzat-hurmat qilmoq, qadrlamoq. Bola qadriga yetmagan ona qadriga yetmaydi. S.Abduqahhor, Ko‘zlar; 2) ahamiyati naqadar aziz, ahamiyatli, qiymatli ekanligini bilmoq, ahamiyatiga, qimmatiga yarasha e‘zozlamoq. Salomatlikning qadriga yetmoq. Gul qadrini bulbul bilar. Maqol. – Qullikni sezmagani hurlik qadriga yeta olurmi?! Hamza. **Qadri o‘tmoq** Ahamiyati, o‘rni sezilmoq, o‘rni bilinmoq, yo‘qligi sezilmoq. Do‘stimning qadri o‘tdi, u bo‘lsa, bunchalik qiynalmas edim. – Isroil Ahmedovning qadri, ayniqsa, hozir o‘tyapti. L.Rahim, Chin muhabbat..

1-jadval

| Qadriyat leksemasi | Qadr leksemasi |
|--|---|
| Birlashtiruvchi semalari | |
| qiymat, ahamiyat, muhimlik holati, qadr-qimmat | miqdor, ahamiyat, muhimlik holati, qadr-qimmat |
| Hayotda tutgan o‘rin | Hayotda tutgan o‘rin |
| Narsa, shaxs, joy, ijtimoiy munosabatlarning qadriyatga aloqadorligi | Narsa, shaxs, joy, ijtimoiy munosabatlarning qadriga aloqadorligi |
| “Aniqlik” va “mavhumlik” semalari | “Aniqlik” va “mavhumlik” semalari |

Har ikki leksemadan umumiy semalar shakllantirib olingandan so‘ng, mazkur semalar atrofida maydonga bevosita va bilvosita mansub bo‘lgan leksemalar to‘planadi. Masalan,

2-jadval

| “QADR” O‘ZAKLI LEKSEMALARNING BIRLASHTIRUVCHI SEMALARI | |
|--|--|
| QADR DON | e‘tibor, juda qadrlamoq, hurmatlash |
| QADR DONLASHMOQ | O‘zaro qadr-e‘tiborli munosabatda bo‘lmoq, qadr don bo‘lmoq, hurmat qilmoq |
| QADR DONLIK | Yaqin munosabat, hurmat-e‘tiborli bo‘lmoq |
| QADR LAMOQ | Obro‘-e‘tiboriga, qadr-qimmatiga yarasha izzat-hurmat ko‘rsatmoq, qadr qilmoq, |
| QADR LI | Qadr-e‘tiborga loyiq; hurmatli, qadr-qimmatini yuqori |

Mazkur leksemalardan “qadriyat” leksemasiga o‘zining eng faol va yaqin semalari bilan “qadrlamoq” leksemasi turadi. .

QADR LAMOQ 1 Obro‘-e‘tiboriga, qadr-qimmatiga yarasha izzat-hurmat ko‘rsatmoq, qadr qilmoq. Ustozlarini qadrlamoq. – Sozandalarni, ustozlarimizni qadrlang, hurmatlang.

T.Obidov, Yusufjon qiziq.

2 Ahamiyatiga, qimmatiga yarasha e'tibor bermoq, shunga yarasha munosabatda bo'lmoq. Insoniy fazilatlardan biri – do'stlik va o'rtoqlikni qadrlashdir. Gazetadan. Yo'ldosh ota yerni qadrlab, paxtani farzandiday ko'radigan odamlami Mirzacho'lga chorlagan ekan. "O'zbekiston qo'riqlari". Tahlil natijalariga tayanib aytishimiz mumkinki, leksemalarning keng ma'no belgilari asosida uning sferasini kengaytirib olamiz. Tabiiyki, qadriyat "qadrlash" va "qadrlamoq" leksemalaridan(fe'lidan) shakllanadi(yasaladi). Qadr+iyat so'z yasash qolipi asosida yuzaga keladi hamda uning semantik markazida "qadrlamoq" holat fe'li turadi. Shu boisdan "qadriyat" leksemasiga eng yaqin ma'no "qadrlash" semasidir. Shu o'rinda muhim bir savol tug'iladi. "Qadriyat" va "qadrlash" qaysi leksemalar asosida shu "bosqich"ga, ya'ni qadriyatga aylanadi? Bu uchun mazkur maydonga oid va shu maydonga aloqasi, umumiy semasi bilan aloqador bo'lgan leksemalarni to'plab, umumiy xususiyatlarini birlashtirib hamda farqlab chiqish darkor. Leksemalarni to'plash va tizimlashtirish uchun ro'yxatini to'plash zarur, bu O'TIL asosida amalga oshiriladi. Bunda 1-2-jadvaldagi umumiy semalardan foydalanamiz. O'zbek tilining izohli lug'atidan tashqari maxsus lug'atlar, internet resurslari, matnlardan foydalansak, leksik baza yanada kengayadi. 1 hamda 2-jadvalda birlashtiruvchi umumiy semalari asosida "qadriyat" mazmuniy maydoniga eng yaqin leksemalar *urf-odat, an'ana, e'tibor, ahamiyat, hurmat, qimmatli, e'zozlamoq, ahamiyatli, aziz* leksemalarining semalarida "qadriyat" leksemasining birlashtiruvchi semalari mavjud.

Mazkur leksemalar ham o'z ichida turlarga bo'linadi. Maydonning markazi va maydonning chekka qismi sifatida baholanadi. Quyida "qadriyat" mazmuniy maydonining markazi sifatida baholanadigan leksemalarning umumiy va xususiy ma'nolari aks ettirilgan. Albatta, bunda leksemalardagi eng faol differensial semalar asos qilib olinadi. O'zbek tilida "qadriyat" umumiy semali atov birliklari tizimi til sathida alohida mustaqil ma'noviy guruhga ega, ushbu atov birliklar differensial belgisiga ko'ra "birlashtiruvchi" va integral belgisiga ko'ra "farqlovchi" semasiga ega bo'lgan makroguruhlarini hosil qiladi, ular umumiy atov birliklar mikroguruhlarga ajraladi. Ushbu guruh leksemalari o'zining birlashtiruvchi va farqlovchi semalari asosida birlashib, qadriyatga oid guruhlarni hosil qiladi. Navbatdagi jadvalda qadriyatga semantik jihatdan eng yaqin va nutqda qadriyat leksemasining o'rnida ba'zan qo'llanadigan nutqiy faol so'zlarni qiyoslaymiz.

3-jadval

| <i>"Qadriyat"</i> umumiy ma'noli atov birliklarning nutqiy sinonimlari va kontekstual sinonimlari | | |
|---|---|--------------------------------------|
| <i>Leksemalar</i> | <i>Umumiy ma'nolar</i> | <i>Farqlovchi ma'nolar</i> |
| <i>An'ana</i> | Hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar | <i>Nasldan naslga o'tuvchi qoida</i> |
| <i>Urf</i> | Umum tomonidan qabul qilingan va amal qili nadigan tartib-qoida; rasm, taomil | e'tirof, baho berish, o'rganish |

| | | |
|----------------|---|---|
| <i>Udum</i> | Umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan tartib | Yo'qlik, nomavjudlik, yo'qolgan (yo'qotilgan) narsa |
| <i>Odat</i> | Ota-bobodan qolib kelayotgan va kishilarga singib ketgan yoki yangidan singib borayotgan rasm-rusum, udum, tartib | O'rganish bo'lib qolgan harakat, qiliq. |
| <i>Rasm</i> | Biror jamiyatda odat hukmiga kirgan tartib-qoida; urf, udum, taomil | Diniy marosim, urf- odat, taomil; |
| <i>Tamoyil</i> | Biror sohada tartib, qoida tusini olgan narsa, tadrijiy yo'nalish | Mayl, moyillik egilish, qiyshayish, o'zgaruvchanlik |

“Qadriyat” mazmuniy maydoniga oid atov birligiga oid leksemalarning til sistemasida turli munosabatlarga kirisha olishi uning tizimdagi mustaqil o'rnini mustahkamlaydi. So'z leksik ma'nolaridagi paradigmatic munosabat sinonimiya, antonimiya, korrelyatsiya ostida o'rganiladi.

Sinonimiya leksemalararo ma'nodoshlik hodisasi sifatida tilshunoslik sohasida atroflicha tadqiq qilingan lug'aviy paradigmalardan biri hisoblanadi. Leksik ma'nolarning paradigmatic munosabatini ko'rsatuvchi asosan ikki hodisa: sinonimiya va antonimiya hodisalari deyarli tillarning leksikologiya va semasiologiyaga bag'ishlangan darslik va monografiyalarida qayd etilib kelinadi. Maydonga oid bir o'zakli leksemalarning umumiy xususiyatga ega bo'lgan semalari muhim ahamiyat kasb etadi, biroq mazkur so'zlarning farqlovchi xususiyatlari har bir leksemaning “mustaqil” leksema ekanligini anglatishga xizmat qiladi.

Jadvallar leksemalarning tuzilishi va semalararo munosabatlarini lingvistik nuqtai nazaridan taqqoslashga yordam beradi. Quyida ularga to'xtalib o'tamiz.

4-jadval

| “QADR” O‘ZAKLI LEKSEMALARNING FARQLOVCHI SEMALARI | |
|---|---|
| QADR DON | <i>Ahil, inoq, yaxshilikni biluvchi, ko'pdan beri tanish, suhbatdosh</i> semalari |
| QADR DONLASHMOQ | <i>Shaxsiy munosabat, shaxsga xoslik, o'zaro yaqinlik, suhbatdosh</i> semalari |
| QADR DONLIK | <i>Mehr-muhabbat, sirdoshlik, hamkorlik</i> semalari |
| QADR LAMOQ | <i>Qadr-qimmatiga yarasha e'tibor bermoq</i> semalari |
| QADR LI | <i>Yaqin do'st, sirdosh, suhbatdosh</i> semalari |

Adabiyotlar tahlili. O‘TILda “e’tibor” leksemasining matnlarda anglatgan turli ma'nolari “qadriyat” mazmuniy maydoniga aloqador bo'ladi. “E'tibor” leksemasining “nazarga olmoq”, “hurmat”, “diqqati oshmoq”, “izzat-ikrom” ma'nolarining ortishi “ma'naviy qadriyat” mavzuiy guruhiga mazmuniy aloqador bo'ladi. “O‘TIL”da “e'tibor”

leksemasining 3 ta ma'nosi berilgan bo'lib, ulardan birinchisi "shaxsning biror kimsa yoki narsaga qaratilgan diqqat-nazari", "fikri", "yodi"; ikkinchi ma'nosi "o'zga tomonidan bo'lgan hurmat hissi"; "qozonilgan hurmat", "obro', nufuz"; uchinchi ma'nosi metaforik ma'no hosil qilib, ikkala ma'noni jamlagan holda ismlarga ko'chgan (E'tibor (xotin-qizlar ismi)). "E'tibor" leksemasining semantik tabiatidagi dastlabki "biror shaxs yoki narsaga diqqatini qaratmoq" ma'nosining faollashishi "diniy qadriyat" mikrogruhi orqali "qadriyat" ma'noviy guruhiga taalluqli. Ikkinchi ma'nosidagi "biror narsa yoki shaxsning e'tiborini tortmoq" semasi orqali "moddiy" va "ma'naviy" qadriyatlardan o'rin oladi. Leksemalarning umumiy lisoniy qiymatini belgilashda, ularning semantik tavsifini berish va lug'atlar yaratishda atov birliklarining ma'noviy qiymatini aniq va qat'iy belgilab olish muhim. So'zlarda semalarni belgilash yoki ko'p sememali leksema semalarini farqlash uchun bugungi kungacha asosiy manba vazifasini "O'zbek tilining izohli lug'ati" o'tab kelmoqda. Xususan, "O'TIL"da "qadriyat" mazmuniy maydonining markaziy birliklaridan birini *bag'rikenglik*, ya'ni *tolerantlik* leksemasi egallaydi. "O'TIL"da "bag'rikenglik" leksemasi "masalaga keng ko'lamda ochiq ko'ngillik bilan yondashishlik" semasi orqali "siyosiy qadriyat"ning leksemasi sifatida izohlangan. Bundan tashqari, "bag'rikenglik-tolerantlik" leksemasi tarkibida quyidagi semalar "qadriyat" mazmuniy maydonidagi quyidagi mavzuiy guruhlarni shakllantiradi.

1) "o'zgacha qarash", "yondashish" semasi "Milliy qadriyat" mavzuiy guruhini;

2) "urf-odatlariga sadoqat" semasi "Milliy qadriyat" mavzuiy guruhini qadriyatlarini shakllantiradi.

Leksemalarning birlashtiruvchi va farqlovchi qoliplarini tahlil qilish tilning tuzilishi va maydon mazmun mohiyatini chuqur anglash, shuningdek, tilimizda "qadriyat" mazmuniy maydonining lisoniy voqelikda aks ettirishi va maydon haqidagi tasavvurlarimizni qanday shakllantirishini ko'rish imkonini beradi.

AZIZ [*a.* ulug', qadrlil] **1** Kam topiladigan, noyob va qadrlil; taqchil. *Suv boshqa joylarga ham xuddi shu yerdan taqsimlanadi. Sakkiz kun Marg'ilon bilan Simga, sakkiz kun Chimyon... Oltiariqqa oqadi. Shuning uchun ham suv bizda odam qoniday aziz.* S.Ahmad, Ufq.

2 Hayot uchun eng zaruriy va qadrlil, tengi yo'q. *Aziz taom. – Bug'doy shunday aziz ovqat. Oybek, Tanlangan asarlar. G'alla xalqimizning peshona teri bilan, bilak kuchi bilan bunyodga kelganligi uchun ham aziz va muqaddasdir.* Gazetadan.

3 E'zoz-e'tiborga, izzat-hurmatga loyiq, ardoqli, qadrlil. *Aziz Vatan. Aziz mehmon. Bola aziz, odobi undan aziz. Maqol. Er siylangan yerda aziz. Maqol. ...nahot sen, mening pushtikamarimdan bo'lgan, jondan aziz farzandim, shu haqiqatni tushunmasang.* K.Yashin, Hamza. *Siylangan joyida azizdir inson.* A.Oripov.

4 Oliy qadrga ega, tabarruk. *U yerda [Shohimardonda] allaqanday bir azizning qabri bor deyishadi...* K.Yashin, Hamza. *O'zbekiston — azizlar Vatani.* Gazetadan. *So'ylayin ajoyib voqeotlardan, Aziz avliyolar, o'tgan zotlardan.* A.Oripov, Everest va ummon.

5 Qayd etilgan belgi-xususiyatlarga egalikni ta'kidlovchi munosabatni bildiradi. *Aziz do'stim. Aziz ustozlar.* — *Azizim, qizingizning baxtini birovlarining ostonasidan qidirmang.* A.Qahhor, Og'riq tishlar.

6 Aziz (erkaklar ismi).

“Aziz” leksemasi birinchi ma'nosida “noyob”, “kamyob”, “qadrli”, ikkinchi ma'nosida “qiyossiz”, “tengsiz”, uchinchi ma'nosida “e'zoz-e'tiborga loyiq”, to'rtinchi ma'nosida “tabarruk”, “ulug'”, beshinchi ma'nosida “belgiga egalik, mavjudlik”ni bildirsa, oltinchi ma'nosi esa metaforik yo'l bilan yigitlar ismiga ko'chgan. Ushbu ma'nolarning barchasi bevosita va bilvosita “qadriyat” mazmuniy maydoniga tegishli. Masalan, oxirgi metaforik va onomastik xususiyatga ega bo'lgan, milliy qadriyatlarimiz mahsuli bo'lmish kishi ismlarining mohiyatida ham qadriyatlarimizning ta'siri mavjud. “El ichra aziz va hurmatli inson bo'ib yursin” ma'nosida qo'llanadigan Aziz ismi ham qadriyatlarimiz mahsuli sifatida onomastik birlini yuzaga keltirgan. Shunday leksemalardan yana biri “baho” leksemasidir.

Maydon nazariyasida leksemalarning semantik munosabatlarni o'rganish ularning o'zaro ma'no aloqalari, turlarini xususan, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, gipernymiya kabi xususiyatlarini o'rganishga asos bo'ib xizmat qiladi. Mazkur hodisalarning barchasi uchun umumiy va xususiy, birlashtiruvchi hamda farqlovchi semalar muhim o'rin tutadi. Tahlilga olayotgan har bir leksemamizning tarkibida “qadriyat” mazmuniy maydoniga oid semalar mavjud. Xususan, unga kontekstual sinonim sifatida “baho” leksemasini ko'chma ma'nosining izohiga e'tibor qaratamiz.

5-jadval

| “Qadriyat” umumiy semali leksemalarning umumlashtiruvchi va farqlovchi tomonlari | | |
|--|--|---|
| Leksemalar | Umumiy semalari | Xususiy semalari |
| <i>Etibor</i> | izzat-ikrom, biror shaxs yoki narsaga diqqatini qaratmoq | hurmat, biror narsa yoki shaxsning e'tiborini tortmoq |
| <i>Aziz</i> | noyob, kamyob, qadrli, qiyossiz, tengsiz, e'zoz-e'tiborga loyiq, tabarruk, ulug' | belgiga egalik, mavjudlik semasi |

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da **QIMMAT** leksemasiga shunday izoh berilgan: [a. – boylik, qimmatbaho narsa, qadriyat; baho; qiymat] 1 Nisbatan yoki me'yor, mo'ljaldagidan katta pul turadigan, narxi baland. *Qimmat mol. Qimmat buyum.* – *Qimmat bo'lsa ham, noiloj olar edim-a, lekin puldan hemiri ortmadi. Oybek, Tanlangan asarlar. Shunaqa qimmatidan olmasdan, gazmol olib kelsangiz-ku, bir xil qilib tikib berardim... R.Fayziy, Sen yetim emassan. Etigingiz qimmat, usta. Biz talabalarning qudratimiz yetmaydi. Mirmuhsin, Me'mor.* Ushbu leksema to'g'ridan to'g'ri qadriyatga aloqador bo'lmay, “qimmatbaho narsa, qadriyat, qiymat” semalari bilan matnlarda va nutqiy jarayonlarda qadriyat ma'nosiga bilvosita ma'noda qo'llanadi.

MUHTARAM [a. hurmatli, qadrli, aziz] 1 Hurmat va ehtiromga sazovor, hurmat, qadr qilinuvchi; hurmatli. *Muhtaram o'qituvchilar Muhtaram o'rtoq.* – *Senga cheksiz sharaf bo'lsin umrbod, Muhtaram, azizim, muallim, ustod. X.Rasul.*

Xulosa. Bugungi kun tilshunosligining asosiy vazifalaridan biri bugungi kun til sohiblarini sof insoniy tuyg'ular bilan tarbiyalash, ularning ongida milliy qadriyatlari hamda unga oid birliklar mazmun-mohiyatini tushunib anglashlari uchun ma'naviy guruhga oid lingvoma'naviyatshunoslik lug'atini yaratish, buning uchun esa "qadriyat" mazmuniy maydoniga oid leksemalarni imkon qadar sodda, qisqa, tushunarli tarzda yetkazish maqsad qilib olinish zarur.

Ikki leksemani umumiy semalari orqali farqlash "qadriyat" mazmuniy maydonidagi atov birliklarni tilshunoslikning pragmatik, lingvokulturalolik va lingvoma'naviy munosabatlari bilan chambarchas bog'liq holda o'rganadi. Mavjud bo'lgan og'zaki va yozma lingvistik ba'za qadriyatlar va antiqadriyatlarni aksiolingvistik tushunishga va tahlil qilishga imkon yaratadi. "Antiqadriyatlar tabiatan antonimikdir va u yoki bu narsani inkor etuvchi tushunchalar sifatida qaraladi bu esa yana bir bor "qadriyat" mazmuniy maydonini lingvistik kategoriya sifatida o'rganishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Falsafa qomusiy lug'ati. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2004. – 468 b.
2. Babushkin A.P. Tipy kontseptov v leksiko-frazeologicheskoy semantike yazyka. – Voronezh: Izdatelstvo Voronezhskogo gosudarstvennogo universiteta, 1996. – 104 s.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jild. 1-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensklopediyasi nashriyoti, 2022-yil. –B. 249
4. Vetonosova T.A. *Sopostavitel'noe issledovanie tsennostey v rossiyskom i amerikanskom politicheskom diskurse* [Comparative Study of Values in Russian and American Political Discourse]. Dis. ... kand. filol. nauk. Ekaterinburg, 2006. 174 p
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз. 2010. – Б. 26
6. Белкин В.М. Арабская лексикология. – М.: Изд.МУ. 1975. – С. 144–163.

PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934